



**PROFILAKTIKA INSPEKTORLARI TOMONIDAN SHAXSDAGI
G'AYRIIJTIMOIY XULQ-ATVORNI ANIQLASH VA UNI PROFILAKTIKASINI
TASHKIL ETISH**

Mardonov Sardor G'ayrat o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 311-guruh kursanti

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola orqali bugungu kunda sodir etilayotgan huquqbuzarliklarga imkon berayotgan shaxdagi g'ayriijtimoiy xulq-atvor va uni ko'rinishlari haqida batafsil yoritililib o'tiladi. Bundan tashqari shaxsdagi hulq atvorni aniqlashda qo'llaniladigan psixalogik bilimlar va ularni tasnifi ko'rsatilib o'tilgan.

АННОТАЦИЯ: В данной статье дается подробное объяснение антисоциального поведения и его проявлений, которые способствуют совершению преступлений сегодня. Кроме того, показаны психологические знания и их классификация, используемые при определении поведения человека.

ABSTRACT: This article provides a detailed explanation of the antisocial behavior and its manifestations that enable the crimes committed today. In addition, the psychological knowledge and their classification used in determining the behavior of a person are shown.

Bugungi shiddat bilan rivojlabib borayotgan mamlakatimizda qonun ustuvorligi, inson qadri, uning sha'ni va qadr-qimmatini yuqori darajaga ko'tarilib kelinmoqda. Songi yillarda amalga oshirilgan barcha islohotlar tom ma'noda "Inson qadri uchun" tamoilini asosini tashkil etib kelmoqda. Bunga yorqin misol sifatida joriy yilni "Yoshlar va biznesni



qo'llab-quvvatlash yili” nomlanishini ham ko'rishimiz mumkin. Buni eng avvalo mamlakatimizdagi ijtimoiy sohaga bo'lgan e'tibor ham kundan kunga ortib borayotganini anglatadi. Albatta yurtimizda qonun ustuvorligiga asoslangan fuqorolik jamiyatini barpo etishda turli darajadagi huquqbuzarliklar va jinoyatchilikka nisbatan ham jiddiy kurash olib borilmoqda. Bunda eng avvalo shaxsda mavjud bo'lgan g'ayriijtimoiy xulq-atvorni aniqlash va uni bartaraf etish katta masala sifatida qaraladi. Taniqli yozuvchimiz Tohir Malik qalamiga mansub bo'lgan “Alvido bolalik” asrida “Hech kim jinoyatchi bo'lib tug'ilmaydi, bolani atrof-muhit, jamiyatdagi turli illatlar jinoyatchiga aylantiradi.”¹ deb aytib o'tgan. Darhaqiqat shaxsda eng avvalo g'ayriijtimoiy xulq-atvor shakillanishi bolalikdan beriladigan tarbiyaga ham bog'liq hisoblanadi. Tarbiyani inson kamolga yetishidagi o'rni haqidagi qarashlar jadidchi ulomolarimiz ham o'z qarashlarini bildirib o'tgan. Unga ko'ra “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”, Abdulla Avloniy ushbu ibratli so'zlarini aytib o'tgan. Albatta bolani yoshligidan berilgan tarbiya uni kelajakda kim bo'lib yetishishini ko'rsatib beradi. Bu jarayonda bolani ota-onasi, yaqinlari va atrof muhitni ham ta'siri katta. Ichki ishlar organlari tomonidan ushbu turdagi shaxslar bilan ishlash, ularni to'g'ri yo'lga qaytarish va qaytadan boshqa bunday harakatlarni sodir etishini oldini olish muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bevosita 2016-yil 16-sentabrdagi O'RQ 407-sonli “Ichki ishlar organlari to'g'risida”gi qonunning 2-moddasida ham “Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishdan, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlashdan, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasidan iborat.”² deb belgilab berilgan.

Shaxsdagi g'ayriijtimoiy xulq-atvorni aniqlash va uni profilaktikasini tashkil etishda eng avvalo profilaktika inspektorlari tomonidan eng avvalo insonlar bilan ishlash jarayonini mukammal bilish talab etiladi. Bunda aholini turli qatlamlari, turli yoshdagi shaxslar bilan muntazam ravishda suhbatlar olib boriladi. Shaxsdagi g'ayriijtimoiy xulq-

¹ Tohir Malik “Alvido bolalik”, «Yangi asr avlodi», 2019-yil 504 bet

² 2016-yil 16-sentabrdagi O'RQ 407-sonli “Ichki ishlar organlari to'g'risida”gi qonuni



atvorni aniqlashda eng samarali yo'llardan biri ham bu suhbat olib borish bilan amalga oshiriladi. Bundan tashqari shaxsni yashash sharoiti, uni o'rab turgan atrof muhitidagi holat va yana boshqa bir qancha yo'nalishlarda o'rganish ishlari olib borish talab etiladi.

Shaxsda salbiy xususiyatlar shakllanishiga olib keluvchi oilada noto'g'ri ma'naviy va axloqiy tarbiya berish bir qancha ob'ektiv va sub'ektiv holatlar bilan belgilanishi mumkin. Eng ko'p tarqalgan bunday ob'ektiv omillar qatoriga quyidagilar kiradi:

- oiladagi moddiy qiyinchiliklar;
- ota-onaning ish yoki ro'zg'or yumushlari bilan qattiq bandligi. Bu bolalami nazorat qilishni ob'ektiv tarzda qiyinlashtiradi;
- oila to'liq emasligi (ota yoki onaning yo'qligi);
- ota-ona ma'lumot darajasining pastligi, pedagogik bilimlarning yo'qligi;
- oilada ziddiyatli vaziyatning mavjudligi³.

Ushbu vaziyatda har bir profilaktika inspektoridan shaxsdagi g'ayriijtimoiy xulq-atvorni aniqlash va uni profilaktikasini tashkil etish jarayonida har bir shaxsni o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uni sharoiti va oilaviy ahvolini o'rgangan holda profilaktik ishlarni tashkil etish talab etiladi.

Shaxsdagi ga'ayriijtimoiy xulq-atvorni aniqlashda va uni profilaktikasini tashkil etish jarayonida profilaktika inspektorlari tomonidan bir qancha tushunchalardan foydalanadi. 2014-yil 14-mayda qabul qilingan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi O'RQ 371-son qonunini 3-moddasida asosiy tushunchalar ko'rsatilib o'tilgan. Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish — huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga, g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va

³ Kriminalogiya darslik. Q.R. Abdurasulova. Toshkent davlat yuridik instituti 2007 yil.



boshqa turdagi yordam ko‘rsatishga, shuningdek ularga jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini singdirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui;

g‘ayriijtimoiy xulq-atvor — shaxsning jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini buzuvchi turmush tarzi, harakati yoki harakatsizligi;

huquqbuzarlik — sodir etilganligi uchun ma‘muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan aybli g‘ayrihuquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik);

huquqbuzarlikdan jabrlanuvchi — jismoniy, ma‘naviy yoki mulkiy zarar yetkazilganligi oqibatida huquqbuzarlikdan jabrlangan shaxs;

huquqbuzarliklar profilaktikasi — huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo‘llaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimi;⁴

Shaxsda mavjud bo‘lgan ga‘ayriijtimoiy xulq-atvor ma‘lum davr mobaynida rivojlanib borishi orqali shaxsda huquqbuzarlik sodir etishga moyillik ham shakllanib boradi. Huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo‘lgan shaxs bu-o‘zining g‘ayriijtimoiy xulq-atvori xavfiligi tufayli huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli holatida bo‘lgan jismoniy shaxs. Demak o‘zining g‘ayriijtimoiy xulq atvori tufayli huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslarni biz huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslar sifatida qarashimiz va huquqbuzarlik sodir etishini tushunishimiz mumkin ekan. Hozirda huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslarning ijtimoiy iqtisodiy ma‘naviy qo‘llab quvatlanmayotganliklari tufayli moyil bo‘lgan shaxslar huquqbuzarlik sodir etmoqdalar. Ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari hamda ichki ishlar organlari tayanch punktlarida xizmat olib borayotgan profilaktika inspektorlari va boshqaq sohaviy xizmat xodimlari bilan birgalikda quyidagi huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslar ro‘yxati yuritiladi surunkali alkogolizmga muhtalo bo‘lganlar, giyohvandlikga chalingan shaxslar, zaharvandlikga chalingan

⁴ 2014-yil 14-mayda qabul qilingan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi O‘RQ 371-son qonunini



shaxslar, ruhiy kasallar, tanosil kasalligiga chalingan shaxslar, doimiy yashash joyidan uzoq muddatga chiqib ketgan shaxslar, jazoni ijro etish muassasalaridan hisobida turgan hamda ichki ishlar organlari profilaktik hisobida turgan shaxslar bilan muntazam ravishda suhbat va tushintirish ishlari olib borish orqali ularni qatytadan hayotda o'z o'rnini topishi va ushbu boshi berk ko'chaga qaytadan kirmasligi uchun kerakli ko'rsatmalar olib borilmoqda.

Profilaktika inspektori huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar bilan ishlash faoliyatida bevosita ular bilan ishlashning aniq yo'nalishlarini, rejalarni belgilab olish talab etiladi. Profilaktika inspektorlari tomonidan huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar bilan ishlash faoliyatini o'rganishda birinchi navbatda huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan shaxs tushunchasiga huquqiy jihatdan yondashish muhim hisoblanadi. Bundan tashqari shaxs tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarni oldini olish va unga barham berishda eng avvalo jinoyat tushunchasiga ham to'xtalib o'tishimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasini Jinoyt kodekisini 14-moddasida bevosita yuqoridagi tushunchaga ta'rif berib o'tilgan. Unga ko'ra “Ushbu Kodeks bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi. Ushbu Kodeks bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaradigan qilmish ijtimoiy xavfli qilmish deb topiladi”⁵.

Har qanday jinoyat - murakkab hodisa. U faqat hodisa sifatida murakkab emas. Jinoyat - bir qancha omillar bog'lanishi va o'zaro ta'siri natijasi (oqibati)dir. Bu omillarning ham har xil turlari bo'iishi mumkin. Ammo ularning orasida eng muhimini ajratish mumkinmi? Boshqacha aytganda, ushbu natija - oqibatning vujudga kelishida qaysi muhim omil yoki “ishtirokchi” qatnashadi? Bu, eng awalo, individ yoki muayyan jinoiy qilmish sodir etgan odamning shaxsidir. Ushbu shaxssiz oqibat - jinoyat ro'y bermagan bo'lur edi. Ammo shaxs - ongli mavjudot, shu bois jinoiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik) sodir etishga nisbatan muayyan xohish-irodaga egadir. Binobarin, bu erda

⁵ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodekisi.



jinoyatchi shaxsining xohish-irodasi birinchi o'ringa chiqadi. Albatta yuqoridagi sanab o'tilgan holatlarni inobatga olgan holda profilaktika inspektorlari tomonidan shaxsdagi g'ayriijtimoiy xulq-atvorni aniqlash va uni profilaktikasini tashkil etish bo'yicha choratadbirlarni amalga oshirishda qonuniylik asosida fuqorolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini buzmagun holda amalga oshirish kerakligi talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi” . ; T 2023
2. “Huquqbuzarliklar Profilaktikasi to'g'risida”gi 2014-yil 14-maydagi O'RQ 371-sonli qonuni.
3. “Ichki ishlar organlari to'g'risida”gi O'RQ 407-sonli qarori. 2016-yil 16-sentabr.
4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodekisi.
5. Kriminalogiya darslik Q.R. Abdurasulova. Toshkent davlat yuridik instituti 2007 yil.
6. Advice.uz ijtimoiy huquqiy sayti (<https://advice.uz>).
7. Lex.uz ijtimoiy huquqiy sayti (<https://lex.uz>).
8. “Google” jahon ijtimoiy internet tarmog'i (<https://google>.)